

# O‘TKIR QALAM SOHIBI CHINGIZ AYTMATOVNING “JAMILA” QISSASIDAGI BOTINIY VA ZOHIRIY MA’NO XUSUSIDA TAHLILIIY QARASHLAR

*M.Z.Saydullayeva Manzura Zoxidjon qizi*

*SamDChTI 2-bosqich talabasi*

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada fransuz olimi Lui Aragonning “Muhabbat haqida yozilgan eng yaxshi asar” deya ta’kidlangan, Chingiz Aytmatov ijodiga mansub “Jamila” qissasi xususida mulohazalar o‘z ifodasini topgan.

**Kalit so‘zlar.** Hayot, inson taqdiri, jo‘shqinlik, yurt madhi, personaj, chin muhabbat.

Qirg‘iz adabiyotining yetuk ziyoli namoyondalaridan biri Chingiz Aytmatov asarlari dunyoning qaysi nuqtasida bo‘lishidan qat’iy nazar barcha kitobxonlar uchun manzur va maqbuldir. Uning ijod namunalari faqatgina maroq bag‘ishlaydigan asar bo‘libgina qolmay, insonlar qalbining tub-tubigacha yetib boradi. Xususan, adib har bir asarda insonni ulug‘lashi, uning zahmatkashligi, yaratuvchanligini sharaflashi bilan e’tiborni tortadi.

Badiiy so‘z qudratini chuqur anglagan ijodkor so‘zlardan ustalik bilan foydalana olishi bilan ham e’tiborga molik. Shundayin mahorat bilan yaratilgan asarlardan biri "Jamila" qissasidir. Bu qissa o‘tgan asrning ellik-oltmishinchi yillarida adib Moskvadagi Oliy adabiyot kursida talaba bo‘lib yurgan kezlarida yozilgan. Institut proza bo‘limi rahbari Izbax Gonshteyn buyuk fransuz yozuvchisi Lui Aragonga “Jamila” qissasini yuboradi. Oradan ma’lum bir vaqt o‘tgach, Lui Aragon javob xati yo‘llagan va ushbu maktubda aytilishicha, qissa unga juda yoqqan va uni fransuz tiliga tarjima qilib 100 ming nusxada chop ettirgan, yana 100 ming nusxada chop ettirmoqchiligini ham takidlab o‘tgan. Shunisi xarakterliki, xat “Men bunday go‘zal sevgi qissasini o‘qimaganman” degan jumlar bilan yakunlanadi. Aynan mana shu xat va buyuk yozuvchining iqtibosi Chingiz

Aytmatovga ilhom bag'ishlagan va ulkan ijodiy yutuqlarga erishishga turtki bo'lgandir, ehtimol. Jahon adabiyoti namunalaridan, "Jamila" qissasi singari nasriy asarlardan bir necha o'ntasini o'qigan, nafis did sohibi va oddiy so'zdan mukammal so'zlar zanjirini hosil qila oladigan ijodkor deya ta'riflanadigan adib, hayotda ham o'z o'zligini anglab yetgan inson sifatida ta'kidlanadi. "Jamila" qissasi badiiyati mukammal asar, ya'ni badiiy so'z, uslub va vositalardan ustalik bilan foydalanilgan. Xususan, tabiat tasviri aniq va sodda, bir o'qish orqali tasavvur eta oladigan qilib ifoda etilgan, shuningdek, sho'ro tuzimi va urush davrida insonlar hayotining barcha qiyinchiliklari va ularning sinovlarga bardosh bera olishi - matonati mohirona aks ettirilganligi ham muhim ahamiyatga ega. Qissaning asosiy qahramonlari – oddiy odamlar – Jamila, Doniyor, Seit. Voqealar bir qishloq aholisi doirasida aks ettirilgan bo'lib, dastavval, har bir qahramon, xoh u yirik qahramon bo'lsin, xoh epizod har biriga xarakteristika beriladi.

Jamila - sarvqomat, shaddod, shuning barobarida, jo'shqin, gapga chechan va o'jar ayol obrazi. Adib uning tabiatini shunday ta'riflaydi:

“Har bir ishga astoydil kirishar, boshqa kelinlarday boshim, belim og'riyapti deb sira zorlanmasdi. Biroq o'zi ham birovga haqini ketkazmaydigan, aytishgan bilan aytishib, so'kishgan bilan so'kishadigan o'jar ayollardan edi”. [1.9]

Yana bir o'rinda shunday ta'rif beradi: “Jamila sarvqomat, bejirim ayol edi”. [1.11]

Bu ta'rif va tavsiflardan uning yaxshi, ishchan, xusni malohatli olov kelin ekanini anglash mumkin.

Doniyor obrazi haqida so'z yuritar ekanmiz, uning odamovi, lekin ichki dunyosi go'zal, yurtiga mehri beqiyos ishchan yigit obrazi ekaniga amin bo'lamiz. Asarda unga berilgan tariflar quyidagicha;

“Birovga yondashmas janjallashish, tortishish nimaligini bilmas, birovga yaxshi ham gapirmas, yomon ham gapirmas edi”. [1.23]

“U – qalbida yuksak insoniy muhabbat tug'yon urgan bir inson edi”. [1.41]

Jamila va Doniyor. Ular ikkisi bir biriga mos, ya'nikim bir birini to'ldiradigan, go'yo kun va tunde tasvir etilgan: biri sho'x shodon, biri bosiq va mulohazali.

Kuzatishlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, adib dastlab asarni chop ettirgan paytda ko'plab tanqid va e'tirozlar qurshovida qolgan.

Aytish zarurki, bunday e'tiroz va tanbehlarining o'ziga yarasha "asoslari" bor. Asar syujetida Jamila urushda qon kechib, vatani uchun jon kuydirayotgan erini tashlab, boshqa bir kimsa bilan, qochib ketadi, bu ham yetmagandek, qaynukasi Seit ham ularni yoqlaydi. Bu esa bir millatning qadimdan to shu kungacha yetib kelgan urf-odatlarini, ma'naviyati va axloqiy qadriyatlarini, ayni shu xalqqa, shu millatga mansub turmush tarzi, e'tiqodi, ya'nikim milliy o'zligiga xoslikdan chetga chiqqan degan fikrga ega insonlar ko'pgina topilishiga katta bir asos bo'ladi. Ammo tanganing ikkinchi tomoni ham bor, asar faqatgina bir millat e'tiqodi, qarashlari va hayotiy mezonlariga muvofiq ravishda yozilish bilan bir qatorda, umuminsoniy qadriyatlarga va keng qamrovli hayotiy voqealarga, inson hayoti davomida uchrashi mumkin bo'lgan vaziyatlarga, ruhiy kechinma va ziddiyatli jarayonlarga asoslangan holda yaratilishi maqsadga muvofiqdir. Buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatov har bir personaj taqdirini ustalik bilan haqqoniy va asliyatini saqlagan holda yaratadi. Xususan, adabiyotshunos K.Asanaliyev Ch.Aytmatov ijodidagi bu xususiyatni bunday izohlaydi: "Chingiz Aytmatov o'z so'ziga, ijodiga yolg'on aralashtirmagan, haqiqat qanchalik achchiq bo'lmasin, uni butunicha, tag-tugigacha ayta olgan yozuvchilar sirasiga kiradi. Shu jihatdan olib qaraganda, u ayovsiz chinchi (haqiqatchi), rostgo'y yozuvchi. Qahramonlariga nisbatan ayovsizligi yozuvchiga xos oq niyatdan, turmushda uchrab turadigan ziddiyatlarni suvab-siypalamay, tarab-butamay asl holicha aytish maqsadidan kelib chiqadi."

Xulosa o'rnida aytish zarurki, qissada faqatgina bir ayolning oilasini tashlab boshqa kishi bilan qochib ketishi emas balki, ikki sof qalbning birlashuvi aks etgan deyish ham qaysidir ma'noda to'g'ri. Qalbida yurt madhi jo'sh urgan, pok niyatli inson- Doniyorning sof sevgisini yozuvchi quyidagicha ta'riflaydi: "Uning sevgisi biror kishiga ishq tushib, o'sha odamga ato qilingan sevgi emas, balki insonni yaratib, uni kamolga yetkazgan keng olamga, yorug' dunyoga bo'lgan cheksiz, jo'shqin sevgi edi! Ha, u bu sevgini o'z qalbida ardoqlab saqlagan, ana shu sevgi bilan yashagan edi". [1.41] Bu ta'rifdan ko'rinadiki, yigit yuksak qalb egasi va

paridek Jamila unga munosib. Ularning pok tuyg‘usi insoniylik hissi bilan yo‘g‘rilgan, bir biriga oshufta sof ko‘ngil esa bir-birini topgandi va ularning munosabati garchi bemavrid kelgan bo‘lsa-da, chin muhabbat edi.

“Ular chin muhabbatini topdi va birga qochib ketishga haqli” deb ularni **to‘laqonli ravishda** oqlash niyatimiz yo‘q. Balki ular to'g'ri yo‘lni tanladi. Balki... Asarni to‘liq va mazmun-mohiyatini tushungan holda mutolaa qiling va o‘z xulosangizni chiqaring.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jamila. Chingiz Aytmatov - T.: “Yangi nashr”, 2019. - 112b
2. Ahmadjon Meliboyev. Chingiz-dengiz demak. “Tafakkur” jurnali, 3-son, 2018.
3. Hafiza Aslanova, Saydullayeva Manzura. Yozuvchi Toxir Malikning “Nafs kishanlari” asari badiiy va falsafiy tahlili. The Journal of Social Science and Researches Volume 1 Issue 5, 2023.
4. fayllar.org//Chingiz Aytmatov “Jamila” asari tahili.
5. Aslanova, H. (2020). The concept of features of «Beauty» in the creative heritage of Gadoi. JOURNAL of CRITICAL REVIEWS (ISSN-2394-5125. Vol 7. ISSUE 15. 2020. SCOPUS Q4, 6 H index), 2672-2676.
6. Халова, М. А. (2021). Istiqlol davri she'riyatida ayollar obrazi. Международный журнал искусство слова, 4(2).
7. Пардаева, И. (2020). Гоя, бадият, таркиб ва тартиб. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 74-77.
8. Abduraximovna, A. H. (2021). REFLECTION OF MYSTICAL-EDUCATIONAL IDEAS IN GADOI LYRIC. Thematics Journal of Social Sciences, 7(5).
9. Abdurakhimovna, A. H. (2018). ACQUIRING PROFICIENCY IN CREATING SYMBOLS AND LITERARY ART IN GADOI'S POETRY. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych., 274.
10. Каримова, С. (2021). Форс–тожик тилидаги янги адабиётда хиндий сабк. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (78)), 23-26.

Каримова, С. (2020). Зебуннисобегим шеъриятида бадий санъатлар. Иностранная филология: язык, литература, образование, (4 (77)), 18-22.